


TILNING LEKSIK-SEMANTIK TIZIMI,
QIYOSIY TIPOLOGIK IZLANISHLAR
VA ADABIYOTSHUNOSLIK
MUAMMOLARI

MATERIALLAR
TO'PLAMI
XIV



ISBN 978-9943-9329-9-9



9 789943 932999

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**TILNING LEKSIK-SEMANTIK TIZIMI, QIYOSIY
TIPOLOGIK IZLANISHLAR VA
ADABIYOTSHUNOSLIK MUAMMOLARI**

MATERIALLAR TO'PLAMI

XIV

**"Durdon" nashriyoti
Buxoro – 2023**

Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari

Demak, ayrim tilshunos olim yoki so'z san'atkorlari tanlab qo'llagan nomlarning semantik-stilistik xususiyatlarini chuqur o'r ganmay turib, asarlar badiiy qimmatini to'la belgilash mumkin emas ekan. Darhaqiqat, o'zbek tilidagi xalq og'zaki ijodi namunalarini, jumladan, dostonlarda uchraydigan turli xil personajlarning nomlari kishi diqqatini o'ziga jalg qiladigan bo'ladi. Sababi, dostonlarda xalq qahramonlari, ular ichidan yetishib chiqqan sarkardalarga alohida urg'u berib o'tish uchun ham o'zining etimologik-semantik qo'llanish tomonidan boshqa asarlaridagi personaj namunalaridan farqlanib turishi uchun ham muallif tilshunoslikning shu jihatlariga ko'proq yondashadi.

Onomastika sohasi tilshunos, tarixchiva geograflarning atoqli otlarni nazariy va amaliy jihatdan o'rganib tadqiq qilishi o'zbek tilshunosligida alohida soha sifatida rivojlanishiga sabab bo'ldi. Shuni natijasi o'laroq o'zbek tilidagi atoqli otlar nazariy, tavsify, qiyosiy, tarixiy va sinxron yo'nalishda tadqiq qilinmoqda. Shuningdek, o'zbek onomastikasining ilmiy jihatdan o'ziga xos tadqiqot usullari va tamoyillari ham mavjud. O'zbek nomenklaturasi sohasining paydo bo'lishi va bu sohada ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilishi onomastika sohasiga oid turli ilmiy tushuncha va g'oyalarni ifodalovchi boy terminologiyaning shakllanishiga asos bo'ldi¹.

Xulosa qilganda, o'zbek antroponomikasiga oid ilmiy ishlar va tadqiqotlar va erishilgan yutuqlar juda samarali va ancha e'tiborga loyiq, Tadqiqot ishi mukammal ado etilishida quyidagi vazifalar muhim ahamiyatga ega deb hisoblandi:

-til lug'at tarkibining ajralmas bir qismi hisoblangan antroponimlar morfologik va sintaktik jihatdan ma'lum til normalariga, qonun-qoidalariga ega

-antroponimlar qolgan turdosh otlardan konkret shaxs-individual odamni boshqa ko'pchilik odamlardan farqlash bilan ajralib turadi

-onimik leksemalar ma'lum bir ma'noni anglatib, ma'lum va maxsus onomastik vazifaga ega bo'lib, uslubiy, estetik ahamiyatni o'zida mujassamlashtiradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahrorovna, N. N. (2022). STUDY OF ANTHROPONYMS AND THEIR PLACES IN THE LEXICAL SYSTEM. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(1), – P.90-96.
2. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/download/619/575>

¹ Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. –Б.264.

Abdullayeva Gulnora Gaybulloyevna,
BDU, Ingliz tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi
Mirshayeva Nilufar Ilhom qizi,
BDU, Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) yo'nalishi talabasi
KICHIK YOSHLILARNING CHET TILINI O'RGANISHIDA
YOSH XUSUSIYATLARINING AHAMIYATI

Pedagogik psixologiya bilimlarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi hamda ko'nikma va malakalarning shakllanish jarayonini tekshiradi; bu jarayonda bolalar duch keladigan qiyinchiliklarni o'rganadi, ta'lif jarayonida bolalarning umumiyligi taraqqiyot qonuniyatlarini belgilaydi, shuningdek, umuman va ayniqsa chet tilidan beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarning o'sishini belgilaydi. Bu bilan pedagogik psixologiya metodikaga o'quv materialini tanlashda, boshlang'ich sinflarda chet tiliga o'rgatishning mazmuni va hajmini, materialni sinflar bo'yicha va har bir sinfning o'z ichida ma'lum izchillikda joylashtirishni belgilashda yordam beradi, o'qitishning o'quvchilar analitik-sintetik faoliyatining to'g'ri o'sishiga ko'maklashadigan eng samarali usul va shakllarini uliyot psixologiya fani ma'lumotlaridan foydalananib, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish va o'quvchilarga individual yondashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Chet tili o'qitish metodikasi psixolingvistika fani bilan ham uzviy bog'liqdir. Psixolingvistika usuliyotga nutq haqida — nutqni talab qiluvchi, keltirib chiqaruvchi sabablar haqida, fikr bayon qilish darajasi haqida, fikr bayon qilish turlarini belgilovchi omillar haqida, "nutqni qabul qilish signallari" apparati haqida, individual munosabatga va ommaviy aloqaga nutqiy ta'sirning foydasi haqida ma'lumot beradi. Bu ma'lumotlar metodik masalalarni hal qilish uchun, ayniqsa, bog'lanishli nutqni o'stirish metodikasi uchun juda muhimdir.

Boshlang'ich sinflarda chet tili o'qitish metodikasi didaktika bilan, ya'ni ta'lifning umumiyligi nazariyasi bilan ham bog'lanadi. Usuliyot didaktika belgilab bergen qonuniyatlar, qoida va prinsiplarga asoslanadi. Didaktikaning prinsiplariga, ya'ni o'rganiladigan materialning ilmiyligi va muvofiqligi, til materialini o'rgatish va mustahkamlashda ko'rsatmalilik onglilik bilim, ko'nikma va malakaning puxtaligi, doimiy takrorlash, o'quvchilar bilish faoliyatining faolligi, mustaqillik o'qitish-ni hayot bilan, bolalarning qiziqishlari bilan bog'lab olib borishga rioya qilish maktabda o'qitiladigan barcha predmetlardan, shu jumladan, chet tilidan ham o'quv jarayonini tashkil qilishda juda zarurdir.

Chet tili metodikasi umumiy pedagogika bilan ham o'zaro bog'lanadi. Maktab ta'limidagi har bir o'quv predmeti, shu jumladan, chet tili ham faqat bilim berish, ko'nikma va malaka hosil qilish bilangina chegaralanmay, bolaning ongini oshirishi va tarbiyalashi ham lozim. Haqiqatan ham, chet tili o'qitish jarayonida bolalarning dunyoqarashi shakllanadi, bilish qobiliyatlari o'sadi, ular aqliy, axloqiy, estetik tomondan rivojlanadi, xarakterida ma'lum ijobiy xususiyatlar yuzaga keladi, mehnat qilishga o'rghanadi va hokazo.

Pedagogika fani bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni tarbiyalash masalalarini ilmiy tomondan ishlab beradi. Chet tili o'qitish metodikasi pedagogika fani yangiliklariga, uning yuqorida qayd etilgan masalalarni ilmiy tomondan ishlab bergen ma'lumotlariga asoslanadi.

Bolalar kattalardan farqli ravishda kelajakni, ertani o'ylab o'rghanishmaydi. Ingliz tilidagi dars «shu yerda va aynan hozir» ma'nosida o'tkazilishi, bo'lishi kerak. Bolalar chet chet tilini hikoyalarni tushunish yoki o'yinlarda g'alaba qozonish xohlagan holda, ularda o'zlari ham ishtirok etib yaxshi o'rghanishadi. Bir tomondan, chet tili bilan ifodalangan kontent bolalar hayoti, kundaligi bilan bog'liq bo'lishi kerak, boshqa tomondan, bolalarni muloqotga chorlaydigan faoliyat yoki vazifalar ular uchun qiziqarli va muhim bo'lishi kerak. O'quvchilar dars davomida o'zlarini darsning bir qismi sifatida tushunishadi va dars jarayonida xuddi asar qahramonidek o'zlarini tutishadi, harakat qilishadi.

Boshlang'ich sinflarda, odatda, chet tillarnio'rghanish hayotiy situatsiya va o'yinlarga asoslangan harakat usullaridan foydalangan tarzda o'rghanilganda juda samarali hamda muvaffaqiyatli bo'ladi. Agar o'yinli-syujetli situatsiyalar orqali chet tili o'rgatilisa, barcha bolalar bajonu-dil ishtirok etishadi, sababi ular shu tarzda o'sha situatsiyaning bir bo'lagi ekanligini his etishadi. O'quvchilar chet tili bilan, birinchi navbatda, o'z sinf xonalarida birga "yashaydilar". Shuning uchun sinfda muloqot imkonи bo'lsa, o'sha chet tilida bo'lishi kerak. Bolalar nafaqat yo'riqnomalarni tushunish bilan cheklanmasdan, balki chet tilida o'z ehtiyojlarini ifodalashlari ham mumkin. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilida gaplashadigan odam(ona tili ingliz tili bo'lgan)lar bilan muloqot, sinfga taklif etish ham foydali.

Konstruktiv yondashuvga ko'ra, bolalar imkon qadar ko'proq chet tilida o'zlari so'zlar mazmunini, qoidalarni bilib olishlari kerak. Bu shuningdek, ularning asosiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi. Barcha o'quvchilar singari, bolalar ham turli xil ta'lim uslublariga ega. Bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim barcha ta'lim uslublarini hisobga oladi. Taktik va kinestetik o'quvchi turlari alohida e'tibor talab qiladi.

MATERIALLAR TO‘PLAMI

XIV

Boshlang’ich maktablarda o’quvchilarning iqtidorlari, malakalari, bilimlari va qiziqishlari kengroq bo’ladi.

Xorijiy tilni o’rganish, shuningdek, o’rganuvchilarning yaxshi tushuna olish qobiliyatiga bog’liqdir. Ularni har bir bolada boshdan boshlab rag’batlantirish kerak. Ularda akustik, kinestetik, ritmik va vizual farqlashni rivojlantirish kerak. Bolalar tez o’rganishadi, lekin tezda unutishadi. Shuning uchun, nutq doimo takrorlanadi va yana bir kontekstda qayta ishlatiliadi. Kurslar spiral bo’lib, muntazam takrorlashlar ajralmas qismdir. Xorijiy chet tillarnimuvaffaqiyatli o’rganish keng qamrovli usullarni talab qiladi.

Muloqotga kirishishning miqdori va sifati chet tilini tezroq o’rganishning asosiy sabablari hisoblanadi. Dars jarayonida o’quvchilarning e’tibori asosan chet tilining mazmuniga, ahamiyatiga qaratilishi kerak. O’quvchilar e’tiborini birinchi navbatda chet tilining kontent mazmuniga qaratishi kerak. Xorijiy chet tillarnimuvaffaqiyatli o’rganish yana o’rganganlarni qo’llash uchun imkoniyat bor-yo’qligiga ham bog’liqdir. O’quvchilarga shunday vazifalar berish kerakki, toki ular o’rgangan bilimlarini dars jarayonida amaga oshirish, qo’llashga majbur bo’lishsin.

O’zaro muloqot qilish imkoniyatlari chet tili ko’nikmalarining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy munosabat, ayniqsa o’quvchilar chet tilining ma’nosini amalda qo’llay olishsa, chet tilini o’rganish muvaffaqiyatli o’rganishga imkon yaratadi. O’qituvchi tomonidan ushbu jarayon uchun ma’no va muzokaralar o’tkazish imkoniyati muvaffaqiyatli o’qitishning asosiy shartlari hisoblanadi.

Chet tili ta’limi, birinchi navbatda, chet tilidagi kundalik uchraydigan, real bilim va ko’nikmalarini o’rganishga chorlashi kerak, lekin aniq bilimlarni ham rivojlanishiga beparvo qaramaslik kerak. Agar biz chet tili ta’limida qo’llaniladigan metodik-didaktik qarashlarga to’xtaladigan bo’lsak, quyidagilarni ta’kidlab o’tishimiz talab etiliadi: Dars jarayoni bu nafaqat kommunikativ, balki kelajakda o’rgangan bilimlarni qo’llay olish imkoniyatini beradigan kompetensiyalarni qamrab olishi zarur. Bolalrning ko’pchiligi chet tillarni o’rganishga qishiqishadi.

Ularning qishiqishlari, albatta, dars jarayonini tashkil etilishi va bolalarning bu dars jarayonida ma’lum muvaffaqiyatga erisha olishi bilan bog’liqdir. Bu qiziqish yillar davomida birdek saqlanib qoladi deb zikr qilish- bu noto’g’ri, shu sababdan, pedagoglar bu haqida qayg’urishlari, ya’ni o’rguvchilar darsda quvonchga to’lib, muvaffaqiyatlarga erishib qatnashishlarini ta’minlashi zarur. O’rganilayotgan mavzular ham, shu bilan birga savol-topshiriqlar ham o’rganuvchilar uchun ahamiyatli,

qiziqarli va aktual bo'lsagina, dasrning mazmuni hamda maqsadi o'rganuvchilarga tushunarli va esda qolarli bo'ladi.

Chet tili o'rganuvchilari chet tili ta'limida o'zga bir chet tili, ma'daniyat bilan to'qnash keladilar. Shu sababdan, mashg'ulotlarda aynan o'sha chet tiliga xos bo'lgan autentik materiallardan, o'sha madaniyatni yetkazib bera oladigan matn va dabiyotlardan foydalanish tavsiya etiliadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahrorovna, N. N., & Marjona, M. (2021, November). Essential Memory Improving Techniques in Teaching and Learning Process. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 62-68).
2. Xolmatova, Malika Ibadullayevna. "Umumtalim maktablari ingliz tilii darslarida Chet tili ko'nikmalarini rivojlantirish." Science and Education 3.2 (2022): 999-1005
3. Yakubov, Fazliddin Utaganovich. "Improving communicative language skills through role playing activity." Science and Education 3.2 (2022): 1006-1010.

**Зарина Ҳабибовна Усмонова,
Инглиз тилишунослиги кафедраси катта ўқитувчиси
ТАРЖИМАДА ТАРЖИМОН УЛУШИ ВА ТАРЖИМА
ХУСУСИЯТЛАРИ**

Таржима амалиёти пайдо бўлибдики, аслиятни она тилига қандай ўгириш лозим - сўзма-сўзми ёки эркин тарзидами - деган масала таржимонлар олдида кўндаланг турган муаммо саналади. Айрим шахслар, масалан, XX асрнинг бошларида ижод килган санъаткорлар, сўзма-сўз таржимани ёқлаб чиқсанлари ҳолда, амалий фаолиятларида шу усулдан кўпроқ фойдаланиб келган бўлсалар, кўпчилик ижодкорлар эркин таржимани афзал кўриб, санъаткор аслиятнинг ҳарфини эмас, руҳини, сўзини эмас, мазмунини, шаклини эмас, унда мужассамлашган ахборотни бера билиши керак деган нуқтаи назарни олға сурганлар. Аммо масалани назарий ҳал қилиш лозимлиги ҳеч кимнинг хаёлига келмаган.

Таржиманинг мақсади, китобхоннинг савияси ва диidi, матн тури каби қатор масалалар муҳокама кун тартибиغا қўйилмаган. Назарий асоснинг ишланмаганлиги таржима жараёнига турлича ёндашишни келтириб чиқарган. Бу, ўз навбатида, қатор таржима турларининг вужудга келишига сабаб бўлганки, уларнинг айримлари ижодий-илмий, баъзилари иллатли деб тан олинади. қуйида уларнинг айримлари хакида фикр юритилади.

Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari

Juraeva Makhliyo Rashidovna. Representation of a symbol in intercultural communication	65
Rakhmatova Mehriniso Musinovna. Buronova Guzaloy. The role of pragmatic competence in language learning at bukhara state university .	69
Rakhmatova Mehriniso Musinovna, Bekmurodova Marjona. How english language learners improve their sociolinguistic competence	72
Raxmatova M.M., Yuldasheva Niginabonu. Problems faced by second language learners in uzbekistan when acquiring sociolinguistic competence	75
Xayrullayeva Gulasal. Intensivlik semantik-pragmatik kategoriya sifatida	79
Rajabova Maktuba. Structural and semantic analysis of english phraseological units with the meaning "Human character"	83
Sayitova K.H. Effect of time management on teaching and learning foreign languages	86
Караматова Зарина Фатиллоевна. Жаҳон адабиётида элегия жанри.	88
A.A.Haydarov, D.U.Mansurova. Intonatsiyaning tasnifi va uslubiy xususiyalari.....	91
Umurova Xushvaxt Hakimovna, Qahhorova Guli. Yozuvning tilshunoslik va ruhshunoslik masalalari	94
Muxammadiyeva Nigina Maxmudovna. Emotivlik funksional-semantik kategoriya sifatida ifodalinishi	96
Navbahor Nazarova. Tilshunoslikda antroponimik birliklarning nazariy tadqiqi	99
Abdullayeva Gulnora Gaybulloyevna, Mirshayeva Nilufar Ilhom qizi. Kichik yoshlilarning chet tilini o'rganishida yosh xususiyatlarining ahamiyati	102
Зарина Ҳабибовна Усмонова. Таржимада таржимон улуши ва таржима хусусиятлари	105
Ubaydullayeva Muattar O'rinnbekovna, Teshayeva Zebo Ilhomovna. Tilda lakunalarning ishlatalishi hamda o'ziga xos xususiyatlari	108
Sadikov Erkin Tursunovich. Inkorni ifodalovchi nutq aktlarining umumiy tavsifi	111
Saparova Mohigul Ramazonovna, Ruzimurodova Marjona. The importance of body language in communication	118
Зарнигор Джалилова Баходировна. Шахс ва жой номларининг гул номлари орқали ифодаланиши.....	120
Rasulova Nigina Alisherovna. Definitions given to the concept of "linguistic person" in modern linguistics	123